

TARIXIY ROMANLARDA OBRAZLARNING IFODALANISH XUSUSIYATI (“QUTLUG‘ QON” ROMANI MISOLIDA)

Xo‘jamqulova O‘g‘ilxon Umidjon qizi

**Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti mutaxassisligi magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427705>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Qutlug‘ qon” romani misolida tarixiy romanlarda obrazlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda Yo‘lchi, Gulnor, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha, Shoqosim kabi obrazlarning tipologik, psixologik va ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, psixologizm, konflikt, portret, ichki monolog, stilistik individualizatsiya hamda tarixiy realizmning obraz yaratishdagi o‘rni ochib berilgan. Romandagi sinfiy tabaqalanish, boy va kambag‘al qatlam o‘rtasidagi ziddiyatlar, jadidchilik harakati, feodal munosabatlar va inson qadr-qimmatini masalalari obrazlar vositasida ifodalanganligi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot davomida Oybekning so‘z qo‘llash mahorati, obrazlar dinamikasi va tarixiy haqiqatni badiiy ifodalash usullari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, obraz, psixologizm, tipiklik, konflikt, tarixiy realizm, portret, ichki monolog, stilistik individualizatsiya, jadidchilik, feodalizm, ijtimoiy ziddiyat, badiiy tasvir, prototip, kompozitsiya.

THE PECULIARITIES OF CHARACTER REPRESENTATION IN HISTORICAL NOVELS (ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL “QUTLUG‘ QON”)

Xo‘jamqulova O‘g‘ilxon Umidjon qizi

**Master’s student of Uzbek Language and Literature, Faculty of Humanities,
Chirchiq State Pedagogical University**

Abstract: This article analyzes the peculiarities of character representation in historical novels based on Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek’s novel “Qutlug‘ qon.” The typological, psychological, and social aspects of such characters as Yo‘lchi, Gulnor, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha, and Shoqosim are examined in the work. In addition, the role of psychologism, conflict, portrait description, internal monologue, stylistic individualization, and historical realism in character creation is revealed. The article scientifically substantiates the expression of class stratification, contradictions between the rich and the poor, the Jadid movement, feudal relations, and issues of human dignity through literary characters in the novel. During the research, Oybek’s mastery in word usage, the dynamics of characters, and the methods of artistic representation of historical reality were analyzed.

Keywords: Historical novel, character, psychologism, typification, conflict, historical realism, portrait, internal monologue, stylistic individualization, Jadidism, feudalism, social contradiction, artistic depiction, prototype, composition.

Introduction (Kirish). O‘zbek adabiyotida romanchilik janri o‘tgan asrdan boshlab bugungacha bir necha bor o‘zgarish va xususiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu davrda tipiklik, psixologizmning ifodalanishi, konfliktologiyaning kompozitsion funksiyasi, asar va romanlarda prototiplik hamda reallik xususiyatlari orqali amalga oshirib kelinmoqda. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Qutlug‘ qon” nomli romani o‘tgan asr o‘zbek adabiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy jamiyatning tarixiy-realistik ifodasini ochib beruvchi muhim vositalardan biri

hisoblanadi. Shunga ko‘ra, turli kategoriyalar va obrazlarning tipologik jihatidan ushbu romanda keltirilgan shaxslar hamda ularning tahlili muhimdir.

Methods (Metodlar / Tadqiqot usullari): Ushbu tadqiqotda tarixiy-adabiy tahlil, matn tahlili va qiyosiy-tipologik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning *“Qutlug‘ qon”* romani tanlab olindi va undagi obrazlar tizimi ilmiy-badiiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida *Yo‘lchi, Gulnor, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha va Shoqosim* kabi obrazlarning tipologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari matn ichidagi tasvirlar asosida tahlil qilindi.

Results (Natijalar): Yo‘lchining eskidan qolgan to‘qima gilam bo‘lsa ham oyoq bosishdan tortinib, gilamni qayirib eshik oldida shunchaki o‘tirishi va o‘z maqsadini tushuntirishi kabi holatlar ichki qarama-qarshilik, ya‘ni internal konfliktni ko‘rsatadi. U mehnat haqini so‘rash kabi tushunchalarda ijtimoiy tuzum asosida psixologik jihatdan tizzasi bukilgan, haqli joyda ham nohaqdek inson tarzida ifodalangan. *“Prototip va tipiklikning mehnatkash inson vakili sifatida ifodalanishi”¹* hamda individuallik jihatidan uning xarakteri Gulnorga bo‘lgan muhabbatida ham namoyon bo‘ladi.

Gulnor esa Yo‘lchining sevgan qizi sifatida tasvirlanadi. Yo‘lchining obraz dinamikasi ham bir necha bosqichlarda ko‘zga tashlanadi: boshlang‘ich nuqtada haqiqiy qishloq yigiti, uyatchanlik xususiyatiga ega, soddalik ifodalangan yigit tasvirlansa, rivojlanish bosqichida shahar hayotining naqadar qiyin ekanligiga guvoh bo‘ladigan va ongi o‘sishi natijasida hayot yo‘llarini tahlil qila oladigan shaxs bo‘lib yetishadi. Kulminatsiya jihatidan esa Tantiboyvachcha bazmi sahnasida o‘z qadrini himoya qilish uchun kurashadi.

Gulnor obraziga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Gulnor romandagi murakkab psixologik obrazlarning ifodalovchi xususiyatini namoyon etadi. Adabiyotshunoslikda bu obrazni lirik-dramatik obraz deb atash mumkin. Unga nisbatan nafislik va bo‘yining yoshiga qaraganda nisbatan uzun ekanligi, uning yetuk va hayot mashaqqatlarini tahlil qila oluvchi, tiniq yuzli, qalam bilan chizilgandek ingichka qoshlarga ega sohiba inson sifatida gavdalanishi ifodalanadi. *“Poetik parallellik jihatidan esa ichki tozalik va tashqi go‘zallik unda namoyon bo‘lgan”²*. Tuyg‘unlik va oliyanoblik, ko‘ngilning tozaligi hamda iliqligi kabi sifatlar Gulnorning ma‘naviy dunyosini aks ettirishda ifodalanadi.

Psixologik jihatdan Gulnor obrazi ham dinamikaga uchraydi: sevgi va umid bosqichida u Yo‘lchi bilan uchrashuv sahnalarida namoyon bo‘ladi; og‘riq va kurash bosqichida otasining ayni boy bilan nikohlanishga qarshilik qilmagani hamda Mirzakarimboyning qizi bilan nikoh qilish haqidagi niyatlari vositasida kuzatiladi; itoat bosqichida esa taqdirga tan berish va hayot yo‘llariga jimgina boqish kabi tushunchalarni keltirish mumkin. Yormat obrazi murakkab ikkinchi darajali obraz deyish mumkin. Unda mafkuraviy bo‘linganlik, ya‘ni bir necha tushunchalarga sohiblik, sadoqatli xizmatkor bo‘lish bilan birgalikda o‘z qiziga nisbatan shafqatsiz ota kabi jihatlarni muallif turli vaziyatlar orqali singdirishga harakat qilgan. Nuri obrazi orqali esa antiteza usulida Gulnorga nisbatan ziddlik ko‘zga tashlanadi. U boy, lekin ma‘naviy jihatdan kambag‘al, chiroyli, ammo axloqsiz qiz sifatida ta‘riflangan. Gulnor esa buning aksidir.

Discussion (Muhokama. Konfliktli holatlarning turli jihatlarda ko‘rinishi mavjud. Ijtimoiy konfliktning kambag‘allar va boy qatlam o‘rtasidagi savdo munosabatlari hamda muloqot shakllarida namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Pul sahnalari, Mirzakarimboy va Yo‘lchi

¹ Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013.

² Boynazarov F. Jahon adabiyoti: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: “Musiqqa”, 2006

o’rtasidagi munosabatlar buning yaqqol misoli bo’la oladi. Psixologik konflikt esa *Yo’lchi bilan Gulnor o’rtasidagi*, shuningdek, *Yo’lchi bilan Mirzakarimboy Qutidor o’rtasidagi* dialog va suhbatlarda ichki ziddiyatning turli o’rinlarda ko’rinishi orqali ifodalanadi.

Tarixiy asos sifatida 1905–1917-yillardagi o’zbek hayoti va o’zbek jamiyati qalamga olinadi. Bunda paxta bilan bog’liq masalalar, paxta monokulturasini, rus jamiyatidan kirib keluvchi kapitalizm kabi tushunchalar birinchi o’rinda turadi. *“Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy ta’siriga oid tushunchalar ham asarda mavjud. Sinfy tabaqalanishning keskinlashuvi, boylar va kambag’allar o’rtasidagi ziddiyatlar”*³, an’anaviy nikoh kabi misollar orqali bu holatlar yoritiladi.

Prototip sifatida Mirzakarimboyni keltirish mumkin. Mirzakarimboy Toshkentda yashovchi, o’sha davrdagi iqtisodiy hukmronlikka ega bo’lgan obrazlarning prototipi sifatida tasvirlanadi. Bunday boylar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus imperiyasi hamda turli hududlarda yashayotgan insonlarga nisbatan umumiylik xarakteriga ega bo’lgan tipiklashtirilgan obraz hisoblanadi.

Kompozitsiya jihatidan tahlil qilinganda obrazlarning roli chiziqli-parallel prinsip asosida qurilgan deyiladi. Bunda asosiy chiziq *Yo’lchi, Gulnor va Mirzakarimboy uchburchagi* asosida kechadi. Parallel chiziqlar esa Mirzakarimboyning qizi bilan bog’liq voqealarda, Shokir otaning hayotiy tasvirlari va Tantiboyvachcha orqali ifodalanadi. Asarning ekspozitsiyasi jihatidan Yo’lchining kelishi va Mirzakarimboyning uyi bilan tanishishi voqealar rivojining boshlanish nuqtasi deb qabul qilinadi. Ushbu asarda keltirilgan tarixiy obrazlarning voqealar rivojidadagi tuguni esa Yo’lchining o’sha shahar hayotiga singib ketishi hamda Gulnor bilan uchrashuvi orqali namoyon bo’ladi. Voqealar rivojining keyingi bosqichi tabaqalanishning turli sinfiylik va boylik-kambag’allik munosabatlari kesishuvida yuzaga keladi.

Boylik va ma’naviy kambag’allik ham ijtimoiy xalq va boy tabaqalar o’rtasidagi keskinlashuvni yuzaga keltirgan. Sevgining erkinlik bilan amalga oshirilishi, ijtimoiy qadriyatlarning buzilishi Gulnor va Yo’lchi munosabatlari orqali shakllantirilgan. Ijtimoiy hayot va uni yo’q qiluvchi obrazlar, yangi tuzum sari harakat qiluvchi rus bosqiniga qarshi kurashuvchi insonlar sifatida ham obrazlarni keltirish mumkin. Shokir ota, Shoqosim, Alioxun kabi obrazlar buning ifodaviylik jihatini yuzaga keltiradi. Psixologik realizmning aynan ushbu voqea-hodisalarda 1905–1917-yillar kesimida Turkiston hayotida mavjud ekanligi va tipiklashtirilgan holatda Mirzakarimboylar hamda Yo’lchilar kabi obrazlarning jamiyatda mavjud ekanligiga guvoh bo’lish mumkin.

Shoqosim obraziga nisbatan uni mehnatsevar sinf vakillarining bir timsoli sifatida ko’rish mumkin. Shoqosimning rafiqasi kasallikdan vafot etishi, kasallikni bartaraf etishda ularda pulning yo’qligi va bu voqea romanning eng ta’sirli nuqtalaridan biri ekanligi ifodalanadi. Quyidagicha tasvir mavjud: *“Vafot qildi jonkashim, dardkashim, hozir qo’limda jon berdi, holimga voy”*⁴ kabi misollar bilan keltirilgan. Ushbu tushunchalarda dramatik jihatdan qisqa, lekin katta ma’no ifodalovchi so’zlarni anglash mumkin.

Lutfinoz obrazi orqali jamiyatdagi ko’r-ko’ronalik, ko’zbo’yamachilik va soxtalik asosida yashaydigan obrazlarning tipik vakili sifatida tahlil qilish mumkin. Ma’naviy jihatdan manmanlik va kibru havoga berilgan insonlar sifatida keltiriladi. Nutq va harakatlar jihatidan “sadaqasi ketay”, “koyib qo’l uchida ish qilmoq” kabi tushunchalar bilan ifodalangan.

³ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. 102-bet

⁴ Oybek. “Qutlug’ qon”. G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uy. Toshkent – 2019.

Yormat obrazi, ya’ni psixologik jihatdan ikkinchi toifa vakillari xalqqa nisbatan xizmatkorlarning paradoksi sifatida ifodalanadi. Obraz ba’zi o’rinlarda xo’jayinga xizmat qiluvchi inson, boshqa o’rinlarda esa erkin tahlil qiluvchi inson sifatida tushuniladi.

Gulnor va otasi o’rtasidagi og’riqli nuqtalar hamda konfliktli holatlar ko’p tasvir uslubiga olingan. Gulandom obrazi esa jabrdiydalik xususiyatini ifodalovchi va ko’chama-ko’cha yuruvchi inson hayotini tasvirlaydigan obraz sifatida keltiriladi. Tantiboyvachcha bazmi sahnasi aynan Gulandom bilan bog’liqdir.

Portret va psixologik jihatdan yoshining o’n to’qqiz-yigirma yoshlar oraliq’ida ekanligi, bo’yining balandligi, qora va yirik sochlari, boshining uchidagi durracha kabi tasvirlar uning chiroyli, biroq hayoti baxtsiz ekanligini kontrast uslubida ifodalaydi. Ijtimoiy muammoning kambag’al oilalar timsolida jamiyat muammolarini ifodalashi ham ko’p ko’zga tashlanadi.

Gulandomning dutor chalishi asardagi muhim detallardan biri sifatida keltiriladi. Qoratoy obrazi esa xalq vakillarini boshqarishga intiluvchi, xo’jayinlar ko’ziga yaxshi ko’rinishga va turli vazifalarni bajarishga tayyor inson sifatida tasvirlanadi. Yo’lchining eng yaqin maslakdoshi va do’sti sifatida keltirilgan.

Tohir obraziga nisbatan esa simvolik jihatdan xastalik va jamiyat hayotidagi og’riqli nuqtalarni ifodalash keltiriladi. U sil kasalligidan o’layotgan yosh odam sifatida Shokir otaning o’g’li tarzida tasvir uslubiga kiritiladi.

Conclusion (Xulosa): Mazkur tadqiqot natijalariga ko’ra, Muso Toshmuhammad o’g’li Oybekning “*Qutlug’ qon*” romani tarixiy-realistik asar sifatida o’zbek adabiyotida obraz yaratishning yuksak namunalaridan biri ekanligi aniqlandi. Asarda *Yo’lchi*, *Gulnor*, *Mirzakarimboy*, *Yormat*, *Tantiboyvachcha* va *Shoqosim* kabi obrazlar orqali davrning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-siyosiy muhitini chuqur yoritish amalga oshirilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati / – Toshkent: “Akademnashr”, 2013.
2. Boynazarov F. Jahon adabiyoti: Oliy o’quv yurtlari uchun qo’llanma. O’zR Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Musiqqa”, 2006
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. 102-bet
4. Oybek. “Qutlug’ qon”. G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uy. Toshkent – 2019.